

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 3 (2)

www.literature.tsuull.uz

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova, Xurshida Raxmonova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Adabiyotshunoslik" – "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **"Adabiyotshunoslik"** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

"Adabiyotshunoslik" seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Adabiyotshunoslik" seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Dilnavoz Yusupova

Abdullatif Latifiyning “Tazkiratush-shuaro” asarida Navoiyga ergashgan shoirlar zikri5

Zilola Shukurova

Erk-ozodlik g'oyalari tasvirlangan she'rlarning bayozlarda aks etishi17

Soxiba Madirimova

Avaz O'tar ijodida Komil Xorazmiyga izdoshlik37

Gulzoda Soatova

“Maorif va o'qitg'uvchi” jurnalida tarjima asarlarning yoritilishi52

Nurjahon Qayumberdiyeva

“Ruh ul-quds” sohiblariga munosabat63

Xayrullayeva Huriniso

“Qisasi Rabg'uziy” tarkibidagi kichik janrlarning badiiy talqini71

Mohinur Muhammadzokirova

“Boburnoma”ning sujet xususiyatlari79

Maftuna Saparova

Aruz ilmida istilohlar talqini88

Dilruxjon Abdilakimov

Jadidshunoslik ilmining shakllanishi va g'oyaviy-badiiy yondashuvlar101

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug'ov

Adabiy qahramon obrazini gavdalantirishda zamon va makon tasvirining ahamiyati111

Olim Oltinbek

Rauf Parfi sarbastlarining poetik tabiati137

Aruz ilmida istilohlar talqini

Maftuna Saparova¹

Abstrakt

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan bizga ma'lumki, bu davr adabiyotini anglash va uni tahlil hamda tadqiq etish keng bilim manbayini talab etadi. Shu yo'lda tasavvuf va balog'at ilmlari kabi aruz ilmini ham batafsil o'rganish lozim. Buning yordamida biz o'zbek mumtoz davri adabiyotini chuqurroq anglashimiz va undagi ma'nolar xilma-xilligidan zavqni his etishimiz mumkin. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: aruz tizimining vatani bo'lgan arab diyorlarida bu ilmni o'rganish va tolibi ilmlarga o'rgatishda yondashuv qanday? Bunda arab tilining fleksiya qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda aruz ilmini o'rgatishda agglutinativ o'zbek tiliga qanchalik o'xshash yoki o'ziga xos jihatlariga ega? Biz ushbu maqolamizda shu kabi savollarga batafsil javob topish maqsadida kichik ilmiy tadqiqotimizni e'tiboringizga havola qilmoqdamiz.

Kalit so'zlar: *aruz tizimi, bahr, bayt va uning unsurlari, tom bayt, majzu' bayt, mashtur bayt, manhuk bayt, mudavvar yoki mavsul bayt, mutaharrik harf, sokin harf.*

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyotining nazariyasosi bo'lgan aruz tizimi bilan tanishmiz. Ammo aruzning vatani bo'lgan arab adabiyotida u ham xuddi bizning she'riyatimizda aks etgani kabi ifodalanishi yoki yana qo'shimcha bir necha o'sha tilga xos bo'lgan xususiyatlari bilan farq qilishi haqida adabiyotlarda kam ma'lumotlar mavjud. Maqolamizda aruz tizimining aynan shu jihatlarini batafsil, qiyosiy uslubda tadqiq etish orqali o'rganishni maqsad qildik.

Asosiy qism

Arab aruzshunosligini o'rganar ekanmiz, undagi atamalar va ularning ma'nolari o'zbek adabiyotidagi aruz tizimi bilan o'xshashligining guvohi bo'lamiz. Bu yo'lda arab adabiyotiga doir o'nga yaqin manbalarni o'rganib, ularni umumlashtirgan holda

¹ Saparova Maftuna Ravshan qizi – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: saparovamaftuna9@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-5277-8054

Iqtibos uchun: Saparova, M. 2025. "Aruz ilmida istilohlar talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 2025-3: 88-100.

د. حنين عبد الله الشنقيطي; أ. حنين عبد الله الشنقيطي [٨٣٤١] ¹ quyidagilarni keltiramiz – ٧٣٤١ هـ; د. حورية الجهني ٩٣٤١/٠٤٤١ هـ; العروض و القافية ٧٣٤١ هـ; الدكتور ناصر بعداش 9102-0202; الأستاذ سعد بن عبد الله الواصل; محاضرات في علم العروض و القافية []; الدكتور عبد العزيز عتيق ٧٠٤١ هـ - ٧٨٩١ م.

Ushbu asarlarda, dastlab, she'r haqida fikr yuritiladi. Unga berilgan qisqa ta'rifdan shuni anglashimiz mumkinki, she'r bu arabiy ritm bilan ziynatlangan vaznli gap yoki nutqdir. She'rga berilgan ta'rifdan so'ngra *qasida* haqida fikr yuritiladi:

القصيدة: مجموعة أبيات من بحر واحد، مستوية في الحرف الأخير، و في عدد الأجزاء، و أقلها سبعة أبيات، على الأشهر، و ما دون ذلك يسمى قطعة.

(Mazmuni: "Qasida bu harf oxiri va hijolar miqdori jihatidan teng bo'lgan bir bahrdagi baytlar majmuasidir. Uning eng mashhuri kamida yetti baytdan iborat bo'lib, bundan kami "qit'a" deb ataladi" [٨٤١ – tarjima muallifniki] العروض و القافية ، ٧٣٤١ هـ ، ص. ٨٤١)

Yurtimizda ta'lim beriladigan filologiya fanlari doktori, professor Dilnavoz Yusupovning "Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari" o'quv qo'llanmasida esa qasidaga quyidagicha ta'rif beriladi [Yusupova, 2019, 151]:

Qasida (ar. "maqsad", "niyat") – biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli baytli she'r bo'lib, hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin. G'azal singari *a-a, b-a, d-a, e-a ...*, ayrim hollarda masnaviy singari (dostonlar tarkibida kelganda) qofiyalanadi.

So'ngra *bahr* haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda shunday deyiladi:

البحر: النظام الإيقاعي للتفاعيل المكررة بوجه شعري.

(Mazmuni: "Bahr – she'riy takrorlanuvchi taf'ilalarning ritmik tizimi" – tarj. mual.)

O'zbek adabiyotidagi "bahr" tushunchasiga to'xtalar ekanmiz, filologiya fanlari doktori, professor Anvar Hojiahmedovning "O'zbek aruzi lug'ati" nomli kitobida quyidagi fikrni uchratamiz:

Bahr – arabcha "dengiz" demakdir. Aruz atamalaridan biri bo'lib, ushbu tizimni tashkil qiluvchi asosiy, yirik o'lchov turini ifodalaydi. Bahrlar asllar yoki afoylu tafoyil deb ataluvchi sakkiz

¹ Yuqorida zikr etib o'tgan o'nga yaqin arab aruzshunosligiga doir asarlarga Saudiya Arabistonining Makkayi Mukarrama shahrida joylashgan Ummu-l-Quro universitetida tartib berilgan uchta "Aruz ilmi dasturi 131"; Saudiya Arabistonining Imom Muhammad bin Saud islomiya universiteti tomonidan sanaviyaning 3-bosqich o'g'il talabalariga mo'ljallangan "Aruz va qofiya" nomli qo'llanma; Jazoir xalq demokratik respublikasi Abdul Hafiz Bulsuf universiteti (Mila) Arab tili va adabiyoti kafedrasining birinchi bosqich talabalari uchun taqdim etilgan "Aruz va she'rning musiqiyligidan ma'ruzalar" nomli to'plam va boshqa bir qancha manbalar mansub.

running turlicha tarkibda takrorlanishidan hosil qilinadi [Hojiahmedov, 1998, 37].

Arabiy manbada so'ng *bayt* haqida fikr yurutilar ekan, qisqacha u haqida shunday deyiladi:

البيت: كلّ موزون مقفّ، ذو أجزاء ينتهي بقافية.

(Mazmuni: "Bayt – (tarkibidagi misralari) ritmik ohangdosh, qofiya bilan tugaydigan qismlardan iborat birlik" – tarj. mual.)

Yana bir manbada esa shunday deyiladi:

البيت: و هو مجموعة التفاعيل العروضية التي تتمثل في الصدر و العجز.

(Mazmuni: "Bayt sadr va ajuzdan tarkib topuvchi aruziy ta'filalar majmuasidir". – tarj. mual.)

Olim Anvar Hojiahmedovning yuqoridagi asarida baytga quyidagicha ta'rif beriladi:

Bayt aruz ilmiga ko'ra har biri bir necha rukndan tashkil topgan qofiyali yoki qofiyasiz ikki misra she'r demakdir. Har qaysi bayt 4, 6, 8, ba'zan 12, 16, 20, 36 rukndan tashkil topishi mumkin [Hojiahmedov, 1998, 36].

Mumtoz adabiyot darslaridan bizga ma'lumki, har qanday she'r bayt yoki baytlarning shodasidan tarkib topadi. Shunday baytlar borki, aksariyat she'rlar tarkibida ularning joylashish o'rniga qarab maxsus nomlar beriladi. Ana shunday baytlardan biri *matla'* bo'lib, "Aruz va qofiya" nomli manbamizda u haqida shunday deyiladi.

المطلع: هو مستهل القصيدة ومفتاحها و يطلق غالباً على البيت الأول منها.

(Mazmuni: "Matla' – she'rning boshlanishi va kaliti bo'lib, ko'pincha, uning birinchi baytiga taalluqli bo'ladi" – tarj. mual.)

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Yoqubjon Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" nomli kitobida matla'ga shunday ta'rif beriladi:

(Matla' (ar.: chiqish joyi; oy, quyosh, yulduzlarning chiqish joyi) – g'azal va qasidaning birinchi – boshlang'ich bayti [Is'hoqov 2014, 74])

Arab adabiyotshunosligiga ko'ra, undan so'ng baytning tarkibiy qismlari haqida fikr yuritiladi. O'z navbatida u ikki qismga bo'linadi: sadr va ajuz. Dastlab, *sadr* haqida so'z boradi:

الصدر: النصف الأول من البيت، و يسمى أيضاً: مصراعاً أول.

(Mazmuni: "Sadr – baytning birinchi yarmi, shuningdek,

– [العروض و القافية ، ٧٣٤١ هـ ، ص. ٦١] “birinchi misra”, deb ham ataladi” (tarj. mual.)

الدكتور ناصر [“Aruz va she’rning musiqiyligidan ma’ruzalar” kitobida keltirilishicha, u “birinchi shatr¹” 9102-0202 ، ص. 58] بعداش ham deyiladi. Undan so’ng *ajuz* haqida fikr yuritiladi:

العجز: النصف الثاني من البيت، و يسمى أيضاً: مصراعاً ثانياً.

(Mazmuni: “Ajuz – baytning ikkinchi yarmi, shuningdek, “ikkinchi misra”, deb ham ataladi” – tarj. mual.)

U ikkinchi shatr (الثاني الشطر) ham deyiladi. Maqolamizga asos bo’lgan darslik va kitoblarda *sadr* va *ajuz*dan so’ng bevosita ularning tarkibiy qismi bo’lmish *hashv*, *aruz* va *darblarga* to’xtalinadi.

الحشو: ما عدا تفعيلتي العروض، و الضرب من أجزاء البيت.

(Mazmuni: “Hashv – bayt unsurlaridan arud va darbning taf’iliy rukni” – tarj. mual.)

Shuningdek, yana bir manbada [الدكتور ناصر بعداش 9102-0202 ، ص. 58] u haqida shunday deyiladi:

الحشو: كل جزء من البيت عدا العروض و الضرب.

(Mazmuni: “Hashv – bayt tarkibidagi arud va darbdan tashqari barcha ruknlardir” – tarj. mual.)

Bayt tarkibida *hashvdan* keyin keluvchi *aruz* va *zarb* haqida “Aruz va qofiya” asarida quyidagicha ma’lumot keltiriladi:

العروض: التفعيلة الأخيرة من الصدر.

(Mazmuni: “Arud² – sadrning oxirgi rukni” – tarj. mual.)

الضرب: التفعيلة الأخيرة من العجز.

(Mazmuni: “Darb³ – ajuzning oxirgi rukni” – tarj. mual.)

“O’zbek aruzi lug’ati”ning muallifi Anvar Hojiahmedov shu asarida baytning tarkibiy qismlari bo’lgan *sadr*, *ajuz*, *hashv*, *aruz* va

¹ Shatr (الشطر) — baytning birinchi yoki ikkinchi yarmiga teng bo’lib misrani anglatadi. Bilamizki, bayt ikki misradan tarkib topadi. Shunga tayangan holda adabiyotlarda baytning qaysi yarmi ekanligini aniq keltirish uchun “birinchi shatr” (الشطر الأول) yoki “ikkinchi shatr” (الشطر الثاني) deb keltiriladi.

² Ushbu so’z so’nggidagi harf “ض” – “dod” harfi bilan yoziladi va arab alifbosi bo’yicha “d” tovushini ifodalaydi. Turkiy va forsiy tillarda esa bu harf “zod” – “z” deb talaffuz etiladi. Shu sababdan til taqozosiga ko’ra, ayrim o’rinlarda “arud” deb keltirdik. Maqolamizda “arud” va “aruz” atamaları aynan bir ma’noni anglatib kelgan.

³ So’z boshidagi harf “ض” – “dod” bilan ifodalanganligi sababli manbalarda ham “darb”, ham “zarb” shaklida uchraydi. Maqolada ular aynan bir ma’noni anglatib kelgan.

zarb atamalariga biroz boshqacha ta'rif berganining guvohi bo'lamiz:

Baytni tashkil qiluvchi ruknlar o'rniga ko'ra ham nomlanadi. Birinchi misraning birinchi rukni "sadr", oxirgi rukni "aruz", ikkinchi misraning birinchi rukni "ibtido", oxirgi rukni "zarb", o'rtadagi barcha ruknlar qancha bo'lishidan qat'iy nazar "hashv" deb ataladi [Hojiahmedov, 1998, 36].

Arab va o'zbek tillaridagi ko'plab adabiyotlarda "ajuz" va "ibtido" aynan bir ma'noda keladi. Manbalarda, asosan, faqat "ajuz" yoki faqat "ibtido" atamasi qo'llanilganining guvohi bo'lamiz.

Bundan tashqari, arab tilidagi manbada *taf'ila* haqida ham ma'lumot berilgan bo'lib, u haqida shunday deyiladi:

التفعيلة: وحدة صوتية تتكون من الأسباب و الأوتاد و الفواصل.

(Mazmuni: "Taf'ila¹ – sabablar, vatadlar va fosilalardan tuziluvchi nutqiy birlik" – tarj. mual.)

Ushbu arab manbalaridagi aruziy istilohlardan kelib chiqqan holda bayt va uning tarkibiga kiruvchi unsurlarni quyida jadval asosida keltiramiz:

BAYT	<i>Birinchi misra</i> yoki <i>birinchi s atr</i> yoki <i>sadr</i>	
	Taf'ila - taf'ila (- taf'ila)	Taf'ila
	Hashv	Aruz
	<i>Ikkinchi misra</i> yoki <i>ikkinchi s atr</i> yoki <i>ajuz</i>	
	Taf'ila - taf'ila (- taf'ila)	Taf'ila
	Hashv	Zarb

Bilamizki, o'zbek mumtoz adabiyotida bayt faqat ikki misradan iborat bo'ladi. Uning tarkibida har doim to'liq ravishda *sadr*, *ajuz*, *hashv*, *aruz* va *zarb* unsurlari bo'ladi. Ammo kuzatishlarimiz asosida shuni aniqladikki, arab adabiyotida o'zining til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baytning butun ko'rinishidan boshqa yana bir qancha turlari mavjud. Ularni quyida batafsil ko'rib o'tamiz [الدكتور ناصر بعداش 9102-0202 ، ص. 13].

البيت التام: وهو الذي استوفى جميع تفعيلاته دون دخول زحاف ولا علة.

("Tom bayt ("البيت التام" – to'liq, tugal, mukammal bo'lgan bayt) – unga zihof ham, illa ham kirmagan, hamma taf'ilalari butun bo'lgan bayt" [الدكتور ناصر بعداش 9102-0202 ، ص. 13]. – tarj. mual.)

Ushbu baytning tasvirini quyidagi jadvalda keltiramiz:

¹ Ayni vaqtda "taf'ila" (تفعيلة) ning ko'pligi "tafoyil" (تفاعيل) ekanligini eslab o'tish o'rinlidir.

T O M B A Y T		
1-misra:	Taʼila (taʼila va/yoki taʼila)	Taʼila
	H A S H V	A R U D
2-misra:	Taʼila (taʼila va/yoki taʼila)	Taʼila
	H A S H V	D A R B

Farqli ravishda oʻzbek adabiyotida, yuqorida aytib oʻtilganidek, baytning jami unsurlari toʻliq boʻlgan, ammo oʻrni kelganida uning hashv, aruz va zarblariga zihof ham, illa ham kiritiladigan turi keng tarqalgan. Umuman olganda, agar mumtoz adabiyotimizdagi hamma turkiyda yozilgan sheʼrlarni tahlil qiladigan boʻlsak, ularning ancha kam qismi vaznning solim shaklida – bayt tarkibiga zihof ham, illa ham kirmagan toʻliq koʻrinishda boʻladi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, baytning bu koʻrinishi oʻzbek mumtoz sheʼriyatining oʻziga xosliklariga moslashgan holda oʻzlashgan hisoblanadi.

Keyingi bayt turi haqida shunday deyiladi:

البيت المجزوء: وهو الذي حذفت عروضه و ضربه، و نجده في المديد والهزج والمضارع والمقتضب.

(“Majzuʼ bayt (”البيت المجزوء” – qismlangan, boʻlingan bayt) – aruzi va zarbi tushirilgan bayt, uni madid, hazaj, muzoriʼ, muqtazab va mujtass (bahrlaridan) topamiz”. – tarj. mual.)

Ushbu baytni yaxshiroq tasavvur etish uchun uning jadval asosidagi koʻrinishi quyidagicha boʻladi:

M A J Z U ' B A Y T		
1-misra:	Taʼila (taʼila va/yoki taʼila)	
	H A S H V	A R U D
2-misra:	Taʼila (taʼila va/yoki taʼila)	
	H A S H V	D A R B

Oʻzbek mumtoz adabiyotida baytning majzuʼ koʻrinishi mavjud emas.

Manbada navbatdagi bayt shunday keltiriladi:

البيت المشطور: وهو حذف منه نصف تفعيلاته، أي شطر من شطريه، فيكون البيت شطرا واحدا، ويكون في الرجز والسريع.

(“Mashtur bayt (”البيت المشطور” – bir misrali bayt) – bu baytda taʼilalarining yarmi, ikki misradan biri, tushiriladi hamda bir misradan iborat boʻladi. Bayt rajaz va sariʼ bahrlarida qoʻllaniladi”. –

tarj. mual.)

Baytning jadvaldagi ko'rinishi quyidagicha:

MASHTUR BAYT		
Misra:	Ta'ila (ta'ila va/yoki ta'ila)	Ta'ila
	H A S H V	A R U D yoki D A R B

O'zbek mumtoz adabiyotida baytning mashtur ko'rinishi mavjud emas.

Mashtur baytdan keying bayt turi sifatida quyidagi bayt keltiriladi:

البيت المنهوك: وهو ما حذف من بحري الرجز أو السريع ثلاث تفعيلاته، و تبقى منه تفعيلتان

(“Manhuk bayt (”البيت المنهوك” – ozdirilgan, zaif, tinkasi quritilgan bayt) – rajaz yoki sari' bahrlaridan uchdan birining tushirilishi natijasida (faqat) ikki ta'iladan tarkib topadigan bayt”. – tarj. mual.)

Baytning jadvaldagi ko'rinishi quyidagicha:

MANHUK BAYT	
Misra:	Ta'ila - ta'ila.

O'zbek mumtoz adabiyotida baytning manhuk ko'rinishi mavjud emas.

So'nggi bayt sifatida quyidagi keltiriladi:

البيت المدور أو الموصول: تكون عروضه مشتركة في كلمة واحدة مع التفعيلة الأولى في الصدر

(“Mudavvar yoki mavsul bayt (”البيت المدور أو الموصول” – doirasimon, dumaloq yoki bog'langan, ulangan bayt) – sadr (birinchi misra)da birinchi ta'ila bilan oxirgi ta'ilasi (aruzi) bir kalimada birlashgan bo'ladi”. – tarj. mual.)

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotidagi aruz tizimi bo'g'inlarning sifatiga asoslanadi. Bunda, uning ochiq yoki yopiq bo'g'inli ekani, tarkibidagi unlining qisqa yoki cho'ziq talaffuz etilishi muhim unsurlardan hisoblanadi. Lekin arabiy aruz tizimi aynan arab tilining o'ziga xoslangan jihatlari bilan bir qancha ko'rinishlarda farqqa ega. Bilamizki, asliy ruknlar sabab, vatad va fosilalardan tarkib topadi. Ana shu juzvlarni tashkil etuvchi harflarning sifati haqidagi ma'lumotni quyida keltiramiz.

Arab aruzshunosligida mutaharrik harflar uch turli bo'ladi: *nasb*, *rof* va *jarr*. Nasb harflar fatha [ˤ] bilan mutaharrik qilinadi. Rof harflar esa domma [ˆ] vositasida harakatlantiriladi. Jarr harflar kasra [ˁ] yordamida harakatli qilingan bo'ladi.

Sokin harflarga keladigan bo'lsak, ularning ikki turi mavjud: hayy ("حيّ" — "tirik") va mayyit ("ميت" — "o'lik"). Hayy sokin harfi unlini cho'zish uchun yoziladigan illatli harflar ("و", "ي" va "ا" — "alif", "vav" va "ya")dan tashqari boshqa undoshlarga sukun belgisini qo'yish bilan hosil qilinadi. So'z tarkibida kelganida uning sukunlangani yozuvda ham, talaffuzda ham aniq aks ettirilgan bo'ladi. Nazarimizda, shu sababdan u "tirik sukun" nomi bilan atalgan. Mayyit sokin harfi esa yuqorida aytib o'tilgan unlini cho'zish maqsadida yoziladigan illatli harflar¹ yordamida yuzaga keladi. So'z tarkibida kelganida uning sukunlangani yozuvda aks etsa-da, talaffuzda aks ettirilmaydi. Shu sababdan "o'lik sukun" deb ataladi. O'rganilgan ushbu mutaharrik va sokin harflarni quyidagi jadvalda misollar bilan keltiramiz:

	MUTAHARRIK HARFLAR			SOKIN HARFLAR	
Harf turi	Nasb	Rof	Jarr	Hayy	Mayyit
Misol	كَب، م	عُر، دُ	فِت، ثِ	بَيْتٌ عَلِمٌ، فِعْلٌ	نَامٌ تَارٌ، سَالٌ

E'tibor beradigan bo'lsak, o'zbek aruzshunosligida hayy sokin harflar o'zidan avval keladigan mutaharrik (ba'zan sokin) harf bilan birga tahlil qilinadi va zaruriy taqti' unsurlari qo'llaniladi. Bunda agar hayy sokin harfidan oldin mutaharrik kelgan bo'lsa, bo'g'inga cho'ziq hijo qo'llaniladi. Agar undan avval hayy yoki mayyit sokin kelsa, unga o'ta cho'ziq hijo belgisi qo'yiladi. Aruz tizimini endigina o'rganayotgan tolibi ilmlarning barchasida ham mayyit sokin bilan mutaharrik harflarni bir-biridan ajratish ko'nikmalari tez orada shakllanavermaydi. Shu sababli kamroq shug'ullangan yoki agglutinativ va flektiv til xususiyatlarini yaxshi bilmaydigan talabgorlarning aksariyatida bu she'riy tizimni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Arab aruziga doir adabiyotlarni o'rganish davomida shu narsaning guvohi bo'ldikki, yuqorida keltirilgan mutaharrik va sokin harflar uchun muayyan belgilar ishlab chiqilgan bo'lib, vaznni aniqlashda ulardan foydalaniladi. Aruz vaznidagi baytlarning vaznini aniqlashda biz qo'llaydigan paradigma (*qisqa hijo "V", cho'ziq hijo "–", o'ta cho'ziq hijo "–V" yoki "∼"*)lar o'rniga ular mutaharrik harf uchun

¹ Albatta, bunda illatli harfni hamzali harf bilan adashtirib yubormaslik lozim.

“/” yoki “|”, sokin harf uchun esa “⁰” yoki “0” belgilari ishlatiladi. Bu orqali misradagi harflarning holati oʻta daqiq ifodalanishi bilan bir qatorda, arab aruzi nuqtayi nazaridan ishni ancha osonlashtiradi.

Bu unsurlarni oʻrganish shunisi bilan muhimki, arab sheʼriyatidagi baytning vaznini oʻzbek sheʼriyatidagi kabi bir yozishda aniqlash biroz mushkul. Buning uchun baytni yana aruziy nuqtayi nazardan — qanday talaffuz etilsa, oʻshanday — qayta yozish, mutaharrik va sokin harflarning turlarini aniqlash talab etiladi. Shuningdek, farqli ravishda, arab sheʼriyatidagi bir baytning har ikkala misrasi ikki xil vaznda yozilgan koʻrinishlari ham uchraydi. Shunisi bilan arab sheʼriyati oʻzbek mumtoz nazmiga qaraganda ancha murakkab qurilishga ega. Misol sifatida quyida bayt keltiramiz¹ [الستاذ سعد بن عبد الله الواصل، ص. ٠١]:

لا يفرحون إذا نالت رماهم
قوما و ليسوا مجازيعا إذا نيلوا

Baytning vaznini aniqlash uchun, dastlab, uni aruziy yozilishi boʻyicha qayta yozamiz:

لا يفرحون / ن إذا / نالت رما / همو
قومن و لي / سو مجا / زيغن إذا / نيلو

Soʻngra mutaharrik va sokin harflarini aniqlaymiz:

لا يفرحون / ن إذا / نالت رما / همو
o/// o//o/o/ o/// o//o/o/
قومن و لي / سو مجا / زيغن إذا / نيلو
o/o/ o//o/o/ o//o/ o//o/o/

Endi birliklarning afoilini aniqlab yozamiz:

لا يفرحون / ن إذا / نالت رما / همو
o/// o//o/o/ o/// o//o/o/
مستفعّلن فعّلن مستفعّلن فعّلن
قومن و لي / سو مجا / زيغن إذا / نيلو
o/o/ o//o/o/ o//o/ o//o/o/
مستفعّلن فاعّلن مستفعّلن فاعّلن

Baytni quyida jadval asosida keltiramiz:

¹ Ishning hajmini hisobga olgan holda bir baytning tahlilini keltirish bilan cheklandik.

لا يفرحون إذا نالت رماحهم				1-misra
لا يفرحو	ن إذا	نالت رما	حهمو	
/ ⁰ / ⁰ // ⁰	/// ⁰	/ ⁰ / ⁰ // ⁰	/// ⁰	
مستفعلن	فعلن	مستفعلن	فعلن	
Mustaf'ilun	Failun	Mustaf'ilun	Failun	
Aruz				
Hashv				2-misra
قوما و ليسوا مجازيعا إذا نيلوا				
قومن و لي	سو مجا	زيغن إذا	نيلو	
/ ⁰ / ⁰ // ⁰	/ ⁰ // ⁰	/ ⁰ / ⁰ // ⁰	/ ⁰ / ⁰	
مستفعلن	فاعلن	مستفعلن	فاعل	
Mustaf'ilun	Foilun	Foil (= fa'lun)	Mustaf'ilun	
Zarb				Hashv

Guvohi bo'lganimizdek, arabiy baytning taqti'sini aniqlash til bilimi va biroz mehnat talab qiladi.

Xulosa

Fikrlarimizni umumlashtirgan holda, quyidagi xusolalarimizga to'xtaldik:

1) Arab va o'zbek aruzshunosligida qo'llaniladigan atamalar va ularning ma'nolari aksariyat o'rinlarda o'xshashligining guvohi bo'ldik.

2) O'zbek aruzshunosligidan farqli ravishda, arab aruzida baytning bir-biridan ko'plab xususiyatlari bilan farq qiluvchi besh xil ko'rinishi mavjud bo'lib, ular: tom, majzu', mashtur, manhuk va mudavvar (yoki mavsul) bayt turlaridir. Maqolamizda har birining o'ziga xos jihatlari jadvallar asosida batafsil yoritib o'tdik.

3) Aruz tizimida yozilgan arab tilidagi she'rlarning taqti'sini chiqarishda shu tilga xos bo'lgan harflarning mutaharrik (rof, nasb, jarr) va sokin (hayy, mayyit) ko'rinishlari muhim ahamiyatga ega. Ularning xossalarini yaxshi o'rganmagan yoki agglutinativ va flektiv tillari xususiyatlarini yaxshi bilmaydigan talabgorlarning ko'pchiligida aruz she'riy tizimini o'zlashtirishda turli qiyinchiliklarga duch kelishgani kuzatildi.

4) Arab tili xususiyatlaridan kelib chiqqan holda arabiy diyorlarda o'qitiladigan kitob va darsliklarning bizga ma'lum bo'lgan barchasida taqti' faqat mutaharrik va sokin harflar uchun muayyan ikki xil belgining qo'llanilishi orqali belgilanadi. Bunda she'riy asarning talaffuzi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayrim o'rinlarda asl matn va aruziy matn yozuvlari bir-biridan ancha farq qilishi aniqlandi. Arab she'riyatiga xos xususiyat bo'lgan bir baytda ikki misraning ikki xil vaznda yozilishini hisobga olsak, talaffuzga

asoslangan aruziy matn vaznni aniqlashda muhim birliklardan hisoblanishini bilib oldik.

Yuqorida keltirilganlardan shuni anglaymizki, arab she'r nazariyasi nisbatan murakkab va batafsil qurilishga ega bo'lib, u maxsus izlanishni talab qiladi.

Adabiyotlar

- مقرر علم العروض ١٣١. إعداد: د. حنين عبد الله الشنقيطي. المملكة العربية السعودية. جامعة أم القرى.
مقرر علم العروض ١٣١. إعداد: أ. حنين عبد الله الشنقيطي. المملكة العربية السعودية. جامعة أم القرى.
الفصل الدراسي الأول: ٨٣٤١ - ٧٣٤١ هـ.
- مقرر علم العروض ١٣١. أستاذة المادة: د. حورية الجهني. المملكة العربية السعودية. جامعة أم القرى.
الفصل الدراسي: الثاني / للعام الجامعي ١٤٤١ / ١٤٤٠ هـ.
- العروض و القافية. المملكة العربية السعودية. جامعة الإمام محمد بن سعود الإسلامية. الرياض: المكتبة الملك فهد الوطنية ١٤١٧ هـ.
- محاضرات في العروض و موسيقى الشعر. إعداد: الدكتور ناصر بعداش (أستاذ محاضر - أ-) الجمهورية الجزائرية الديمقراطية الشعبية. جامعة عند الحفيظ بوالصوف - ميله. السنة الجامعية 9102-0202.
- موسوعة العروض و القافية. إعداد: الأستاذ سعد بن عبد الله الواصل.
محاضرات في علم العروض و القافية. قسم اللغة العربية. المرحلة الثانية. العروض علم العروض و القافية. الدكتور عبد العزيز عتيق (أستاذ بجامعة بيروت العربية). بيروت: دار النهضة العربية. ١٤١٠ هـ - ١٣٩١ م.
- Yusupova, Dilnavoz. (2020). *Aruz va mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Akademyashr. – 304 b.
- Исҳоқов, Ёқубжон. (2014). *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Ўзбекистон. – 320 б.
- Талабов, Эминжон. (1977). *Араб арузи*. Тошкент. – 115 б.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. (1998). *Ўзбек арузи луғати*. Тошкент: Шарқ. – 226 б.
- https://youtube.com/watch?v=99t_oK1qIa8&feature=share (16.08.2025).
- <https://youtube.com/watch?v=h0z7QEhLu6E&feature=share> (16.08.2025).
- https://youtu.be/99t_oK1qIa8 (16.08.2025.)

Interpretation of terms in the prosody

Maftuna Saparova¹

Abstract

As we know from lessons in Uzbek classical literature, understanding, analyzing and researching the literature of this period requires a broad range of knowledge. Along this path, it is necessary to study the prosody in detail, just like the sciences of Sufism and eloquence. With this, we can gain a deeper understanding of the literature of the Uzbek classical period and enjoy the diversity of meanings in it. At this point, a legitimate question arises: what is the approach to studying this science and teaching it to students in the Arab lands, the homeland of the arud prosody? In this regard, based on the inflectional laws of the Arabic language, how similar or different is it to the agglutinative Uzbek language in teaching the science of prosody? In this article, we present to your attention our small scientific study to find detailed answers to such questions.

Keywords: *prosody, meter, the verse and its elements, the tam verse, the majzu' verse, the mashtur verse, the manhuk verse, the mudawwar or mawsul verse, the mutahrrik letter, the sakin letter.*

References

- مقرر علم العروض ١٣١. إعداد: د. حنين عبد الله الشنقيطي. المملكة العربية السعودية. جامعة أم القرى.
مقرر علم العروض ١٣١. إعداد: أ. حنين عبد الله الشنقيطي. المملكة العربية السعودية. جامعة أم القرى.
الفصل الدراسي الأول: ٨٣٤١ - ٧٣٤١ هـ.
مقرر علم العروض ١٣١. أستاذة المادة: د. حورية الجهني. المملكة العربية السعودية. جامعة أم القرى.
الفصل الدراسي: الثاني / للعام الجامعي ١٤٤١ / ١٤٤٠ هـ.
العروض و القافية. المملكة العربية السعودية. جامعة الإمام محمد بن سعود الإسلامية. الرياض: المكتبة
الملك فهد الوطنية ١٤٤١ هـ ، ٧٣٤١ هـ.
محاضرات في العروض و موسيقى الشعر. إعداد: الدكتور ناصر بعداش (أستاذ محاضر - أ-) الجمهورية
الجزائرية الديمقراطية الشعبية. جامعة عند الحفيظ بوالصوف - ميلة. السنة الجامعية
9102-0202.
موسوعة العروض و القافية. إعداد: الأستاذ سعد بن عبد الله الواصل.
محاضرات في علم العروض و القافية. قسم اللغة العربية. المرحلة الثانية. العروض
علم العروض و القافية. الدكتور عبد العزيز عتيق (أستاذ بجامعة بيروت العربية). بيروت: دار النهضة
الربيعية. ٧٠٤١ هـ - ٧٨٩١ م.

Yusupova, Dilnavoz. 2020. *Aruz va mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent:

¹ Saparova Maftuna Ravshan qizi – PhD student. Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: saparovamaftuna9@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-5277-8054

For citation: Saparova, M. 2025. "Interpretation of terms in the prosody". *Uzbekistan: language and culture*. 2025-3: 88-100.

Akademnashr. – 304 b.

Is'hoqov, Yoqubjon. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. Tashkent: O'zbekiston. – 320 b.

Talabov, Eminjon. 1977. *Arab aruzi*. Toshkent. – 115 b.

Hojiahmedov, Anvar. 1998. *O'zbek aruzi lug'ati*. Tashkent: Sharq. – 226 b.

https://youtube.com/watch?v=99t_oK1qIa8&feature=share
(16.08.2025).

<https://youtube.com/watch?v=h0z7QEhLu6E&feature=share>
(16.08.2025).

https://youtu.be/99t_oK1qIa8 (16.08.2025.)